

**Avtokredit shartnomasiga
QO‘SHIMCHA KELISHUV**

Toshkent sh.

28.10.2024 y.

Avtokredit shartnomasiga ushbu Qo‘shimcha Kelishuv (bundan buyon matnda Kelishuv deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 8, 248 va 354-moddalari asosida Bank bilan tuzilgan Avtokredit shartnomasiga (bundan buyon matnda Shartnoma deb yuritiladi) muvofiq bankning mijozlari bo‘lgan va joriy avtokreditga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarga mo‘ljallangan (bundan buyon matnda Mijoz deb yuritiladi) Avtokredit shartnomasiga o‘zgartirishni tartibga soluvchi "TBC Bank" ATB shartnomasi hisoblanadi.

1. Fuqarolik kodeksining 248-moddasiga o‘zgartirish kiritilishi va pul majburiyati bo‘yicha talablarni qanoatlantirish navbatining o‘zgarishi munosabati bilan Shartnomaning 3.10-bandi quyidagi tahrirda qabul qilinsin va bayon etilsin:

“3.10. Mazkur Shartnoma bo‘yicha qarzdorliklarni undirish Bank tomonidan quyidagi tartibda avtomat ravishda hisobdan chiqarish yo‘li bilan amalga oshiriladi:

3.10.1. proporsional ravishda muddati o‘tgan asosiy qarzdorlik, muddati o‘tgan foizlar to‘lovlari va muddati o‘tgan asosiy qarz bo‘yicha foizlar;

3.10.2. joriy davr uchun hisoblangan foizlar;

3.10.3. joriy davr uchun asosiy qarz bo‘yicha qarzdorlik;

3.10.4. hisoblangan jarimalar;

3.10.5. hisoblangan penya;

3.10.6. Bankning qarzdorlikni to‘lash bilan bog‘liq boshqa xarajatlari.”.

2. Shartnomaning ushbu Kelishuv bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa barcha bandlari o‘zgarishsiz qoladi.

3. Kelishuv bitim tuzilgan kundan boshlab 10 kalendar kun o‘tgandan keyin kuchga kirgan hisoblanadi.

4. Kelishuvda to‘g‘ridan to‘g‘ri nazarda tutilmagan barcha holatlarda tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va Bank va Mijoz o‘rtasida tuzilgan shartnomalarga amal qiladilar.